

## IMOM ISMOIL AL- BUXORIY FAOLIYATINING PEDAGOGIK JIHATLARI

**Mardiyeva Yulduz Ubaydullayevna**

*SamDChTI mustaqil tadqiqotchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Imom Ismoil al-Buxoriy faoliyati asosida ta'lim va tarbiyaning boshlang'ich asoslarini tahlili keltirilib o'tilgan. Bizga ma'lumki, o'rta asr ta'lim tizimi bevosita shariat va islom aqidalari asosida olib borilgan. Tarbiya masalalariga bolalarning yoshligidan e'tibor qaratilgan. Bu masalani ajdodlarimiz kun tartibidagi muhim vazifa sifatida bilishgan. Biroq shariat va Islom diniga kiritilib borilgan o'zgarishlar keyingi davrda bir qator tushunmovchiliklarni, ta'bir joiz bo'lsa aytish mumkinki, inqirozli holatlarni keltirib chiqargan, shu boisdan ham hadislar asosidagi pedagogikani yoritish bugungi kunning dolzarb masalasidir.

**Kalit so'zlar:** Qur'on, hadis, muhaddis, shariat, sharqona pedagogika, didaktika.

**Аннотация:** В данной статье анализируются основные принципы образования и обучения на основе работ Имама Исмаила аль-Бухари. Мы знаем, что средневековая система образования была непосредственно основана на шариате и исламских верованиях. Особое внимание сосредоточено. Наши предки считали этот вопрос важной задачей. на повестке дня. Однако изменения, внесенные в шариат и религию ислам в последующий период, вызвали ряд недоразумений, так сказать, кризисных ситуаций. Именно поэтому хадисы, освещающие основанную на нем педагогику, являются актуальным вопросом сегодня.

**Ключевые слова:** Коран, хадисы, мухаддисы, шариат, восточная педагогика, дидактика.

**Annotation:** This article analyzes the basic principles of education and training based on the work of Imam Ismail al-Bukhari. We know that the medieval education system was directly based on Sharia and Islamic beliefs. attention is focused. Our ancestors considered this issue as an important task on the agenda. However, the changes made to the Sharia and the religion of Islam in the following period caused a number of misunderstandings, so to speak, crisis situations. That is why the hadiths highlighting the pedagogy based on it is a topical issue of today.

**Key words:** Qur'an, hadith, muhaddis, sharia, oriental pedagogy, didactics.

## KIRISH

Insoniyat jamiyati yuzaga kelgandan boshlab muayyan e'tiqodlar asosida yashab keladi. Bu g'oyalar siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy xususiyatlarni o'zida aks ettiradi. Barcha g'oyalar orasida diniy e'tiqod va din bilan bog'liq g'oyalar insoniyat ongiga boshqa g'oyalarga nisbatan chuqur singib ketgan. Diniy xurofot va mutaasiblik avj olgan vaqtlarda yuzaga keladigan tang vaziyat jamiyatning barcha jabhasini birdek qamrab olishi va beqaror vaziyatni yuzaga keltirishini hisobga oladigan bo'lsak, Pedagogik jarayonlarda mazkur sohani reallik nuqtai nazaridan ta'lim muassasalarida uqitish kun tartibidagi masalaga aylanadi. Hozirgi kunda dunyoda dini barog'i ostida harbiy to'qnashuvlar ketayotgani hammaga ma'lum. Afg'oniston, Falastin kabi davlatlardagi ahvol buning yaqqol dalilidir. Shuningdek, turli diniy oqimlar, fundamentalistik, ekstremistik tashkilotlar olib borayotgan terrorchilik harakatlari necha – necha minglab begunoh odamlar hayotiga zomin bo'lmokda. Din faqatgina ezgu ishlar uchun xizmat qilishi lozim. Bu haqida sharqshunos olim U.Uvatovning bir fikri alohida e'tiborga loyiq: "Imom Buxoriy hayoti va ilmiy faoliyatiga xos yana bir muhim jihat shundaki, Buyuk alloma bundan qariyb 12 asr oldin ham diniy mutaassiblikka, tor aqidaviylik doiralarida mahdudlashishga, bid'at va xurofotga nisbatan murosasiz bo'lgan. Xullas, Buyuk vatandoshimizning yorqin hayoti va ko'p qirrali boy faoliyatini har tomonlama chuqur o'rganish ma'naviy barkamol insonlarni yaratishdek Buyuk va olijanob vazifaga xizmat qilishi shubhasiz" [1:32].

## ASOSIY QISM

Ingliz olimi X. Munsonning fikricha, g'arbda "musulmon fundamentalistlari" haqida gap ketsa, barcha musulmonlarni nazarda tutish odat tusiga aylanmoqda. Biroq bu noto'g'ri tushuncha ekanini ta'kidlar ekan, u: "Fundamentalistlar shunday odamlarki, ular muqaddas kitoblarni ishontirish, jamiyatning ijtimoiy va siyosiy hayotiga ta'sir qilish uchun ishlatishga moslashib boradilar. Ular o'zgarmas va mustahkam bo'lishga harakat qiladilar" [4:4], - deb yozadi. Shuningdek, olim fundamentalistlarning nafaqat islom dinida, balki boshqa e'tiqoddagi odamlar orasida ham mavjudligini alohida ko'rsatib o'tadi. XX asrda ro'y berayotgan shaxsiy va ommaviy tajovuzkorlikni bartaraf qilish ehtiyoji 80 – yillarda yangi – psixanalitik pedagogikaning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Yangi pedagogik yo'nalish yosh qonunbuzarlar va jinoyatchilarga qarshi bolalar axloq tuzatish muassasalari sonini oshirish orqali kurashib bo'lmaydi; bolalarni tinchliksevarlik ruhida tarbiyalash uchun ijtimoiy, iqtisodiy va pedagogik kuchlarni safarbar qilish kerak; eng muhimi – barcha kuchlarni ilk yoshdanoq bolalar orasidagi tajovuzkorlikning oldini olishga

qaratish kerak, deb hisoblaydi [2:43]. Psixoanalitik pedagogika jahon orqali tajovuzkorlik ruhi singdirilayotgani haqida ogohlantirmoqda. Bunday tajovuzkorliklar ta'siridan yosh avlodni asrashda esa ajdodlarimizning ma'naviy merosidan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Al – Buxoriy axloqiy tarbiyaga oid ta'limotlariga qiyosiy nazar tashlar ekanmiz, bu ikki alloma insonning axloqiy tarbiyasi masalasiga ikki xil yondashganlariga qaramay, ularning asl va yagona maqsadlari barkamol, axloqan pok inson tarbiyasi masalasidir, aynan shu jihatdan ularning axloqiy ta'limotlari o'zaro uyg'unlashib boradi. Al – Buxoriy insonni axloqiy kamolotga erishmoqligi uchun halollik, poklik, ota – onaga hurmat, yaxshilik, birodarlik, do'stlik, vafodorlik, rostgo'ylik, hayo, muloyimlik, mehribonlik, saxovat, ilmlilik, sabr – qanoat, muruvvat, ezgulik, adolatlilik, shirinsuxanlik, rahmdillik, ehson, hamjihatlik, g'amxo'rlik, kechirimlilik, beozorlik kabi fazilatlarni ko'rsatgan bir vaqtda, al – Forobiy salomatlik, nozik farosat, yaxshi xotira, zukkolik, shirinsuxanlik, ilmga chanqoqliq, nafsni tiya olishlik, haqiqatparvarlik, oliyanoblik, kamtarlik, adolatparvarlik, qat'iyatlilik, donishmandlik, jasurlik, ijodkorlik oldidan ko'ra bilishlik, notiqlik, har sahada mohirlik kabi sifatlar bilan inson axloqan barkamol bo'lib, baxt – saodatga erishuvini ta'kidlaydi.

Al – Buxoriy o'z asarlarida insonning ma'naviy inqiroziga: o'zgalarni haqorat qilish, hasad, hirsga berilish, manmanlik, haromxo'rlik, ikkiyuzlamachilik, behayolik, tajovuzkorlik, isrofgarchilik, buzg'unchilik jaholat, yolg'onchilik, g'iybat, buzuqlik, nahoqliq, adolatsizlik, xiyonat, tuhmat, adovat, zulm, harom ishlar, ota – onaga itoatsizlik, qotillik, iymonsizlik kabi illatlar sabab bo'lishi haqida ogohlantirgan. Bugungi kunda yosh avlodning axloqiy kamolotini ta'minlash hamda mustaqil O'zbekiston xalqining barkamol farzandlarini tarbiyalash yo'lida o'sib kelayotgan avlodda quyidagi fazilatni hosil qilib, odat tusiga aylantirish lozim:

a) vatanparvarlik, xalqparvarlik, insonparvarlik, elga hurmat va sadoqat, xalq qayg'usi va quvonchiga hamdardlik, mehnatsevarlik, chin qo'shnichilik munosabatlari, mehmondo'tlik;

b) oilaga sadaqat, pok muhabbatni e'zozlash, diyonatli va vijdonli bo'lish, o'z or – nomusini saqlash, ichkilik va giyovandlik kabi nomaqbul odatlardan saqlanish;

v) ajdodlarga hurmat – ehtirom, ularning merosini ardoqlash, asrab – avaylash, o'qib – o'rganish, o'git, pand – nasihatlariga amal qilish, ishlarini davom ettirishga intilish;

g) ota – onaga va ustozga kata hurmat, kattalarga, qariyalarga izzat, kichiklarga mehribonlik, yetim – yesirlarga, nogiron va muhtojlarga muruvvat, mehr va shafqat, ularga g'amxo'rlik;

d) tabiat va jamiyat boylıklariga ongni munosabatda bo'lish, ularni asrab – avaylash, tejab – tergansh, jonli mavjudotlarga g'amxo'rlik, yaratuvchanlik, bunyodkorlik, ijodkorlik;

e) adolatlilik, rostgo'ylik, haqiqatga intilish, o'z kasbini sevish, o'z galar mehnatini hurmat qilish, kamtarlik, mardlik;

yo) poklik, go'zallikni qadrlash, did va farosat bilan kiyinish, ortiqcha zeb – ziyonatga berilmaslik, til bilan dil birligi, shirinzabonlik va shirinsuxanlik.

O'zbek milliy tarbiyasi mazmunidan joy olib, o'zaro munosabatlarda namoyon qilinishi lozim bo'lgan insoniy fazilatlarni ifodalovchi so'zlar mavjud. Masalan, bir vaqtlar "tavoze", "hayo", "vijdon", "iymon" va boshqa so'zlarning faol qo'llanilganligi dalolat beradi. Lekin xalqimiz tarixining keyingi asrlarida sodir bo'lgan mustamlakachilik, milliy fazilatlarni "qoloqlik", "madaniyatsizlik ko'rsatkichi", "eskillik sarqiti" deya qadrsizlanishi yuqoridagi tushunchalarning o'zbek maktabi darsliklari matnidan siqib chiqardi. Natijada yuqoridagi milliy fizilatlar o'quvchilar uchun boshqa tildagi so'zdek, tushunarsiz qolaverdi. O'quvchilar bilan o'tkazilgan savol – javoblar buni tasdiqlaydi [3:80].

Xulosa qilib aytganda diniy tarbiyaning berilishi pedagogikada alohida ahamiyat kasb etadi. Diniy tarbiyaning berilishida oila, mahalla, Yoshi ulug' kishilarning didaktikasi muhim ahamiyat kasb etadi. Qush inida ko'rganini qiladi degan aqidani hisobga oladigan bo'lsak, oilaviy sog'lom muhit jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan ham bugungi kunda davlatimiz miqyosida oila va mahalla birligiga davlatimiz miqyosida alohida e'tibor qaratilayotganligi e'tiborga loyiqdir. Pedagogika sohasiga ham mazkur jarayonning davlat standartlari asosida joriy qilinganligi ham jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Uvatov U. Aziz bilgan zotlar. // Tafakkur. – 1997. - № 4.
2. Uvatov U. Hadis ilmining sultoni. // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. – 1993. – 29 oktyabr.
3. Quronov M. O'zbekiston umumta'lim o'rta maktablarida milliy tarbiyaning ilmiy – pedagogik asoslari. // Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun takdim etilgan dissertatsiya. – Toshkent, 1998. – 202 b.
4. Munson H. Islam and Revolution in the Middle East. – New Haven and London, 1988. p. 4.